



МУҒАЛЛИМ ҲӘМ УЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЙ

Илимий-методикалық журнал

№ 4/2 2025



гуманитарные науки
естественные науки
технические науки



| | |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Аллаяров М.Ж. Актуальность и потенциал экологического воспитания в начальной школе | 330 |
| Мирзабекова Г.Х. Использование информационных и новых педагогических технологий в начальных школах | 336 |
| Мирзабекова Г.Х. Формы и методы использования информационно-коммуникационных и новых педагогических технологий в начальных школах | 340 |
| Мамедова Ш.Д. Структура культурно-эстетической компетентности будущего учителя начальных классов | 345 |

ТАСВИРИЙ САЪНАТ

| | |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Xakimov U.B. O'quvchilarni amaliy bezak san'ati mashg'ulotlarida naqsh kompozitsiyalarini tuzishga o'rgatish metodikasini rivojlantirish | 355 |
| Ismailov R. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining musiqiy-ijrochilik kompetentligini shakllantirishning nazariy asoslari | 362 |

СОЦИАЛЛЫҚ ПЕДАГОГИКА

| | |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Кудиярова Г.И. Селф-менежментнинг ривожланиш тенденцияси ва концептуал fojalarinining amalijiy ahamiyati | 371 |
| Kazaxbaeva M.J. Ta'limda resurslarni boshqarish: maktab molivayi menejmentining dolzarb muammolari | 378 |
| Duschanova N.S. Neyropedagogika va adabiy savodxonlik integratsiyasining metodologik konsepsiylari | 383 |
| Xudoiberdiev G'.B. Sharq mutafakkirlarining falsafiy qarashlari asosida o'qituvchilarda valeologik kompetensiyalarni rivojlantirish | 389 |
| Sayfullayeva B. Estetik dunyoqarashni shakllantirishda metapredmetli yondashuv metodikasini qo'llash | 394 |
| Maxmudov Sh.T., Akbarov B.A. Talabalarda kreativlik sifatlarini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati | 398 |
| Usmanova R.B. Olyi ta'lim muassasalarida jahon adabiyoti vositasida talabalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash tamoyillari | 410 |
| Atajonova Sh.S. O'zbek va turk xalq maqollaridagi tabiat va hayvonot olami tasviri xususida | 415 |
| Kamolov Sh.J. Kasbiy ta'lim tashkilotlarida vaziyatli yondashuv asosida o'qitish tajribalari (Shveysariya misolida) | 420 |
| Eshmatova G. Z. Bo'lajak pedagoglarning fasilitatsion kompetensiyasini raqamlı texnalogiyalar vositasida rivojlantirish | 426 |
| Kurbanov O. E. Magistratura talabalari tadqiqotchilik salohiyatini takomillashtirishda raqamlı texnologiyalarning pedagogik imkoniyatlari | 432 |
| Musurmonov R. Modernizatsiyalashgan ta'lim sharoitida boshqaruv ilmini o'rganish – davr talabi | 440 |
| Raxmanova M.Q. Ta'lim jarayonida talabalar ijtimoiy faolligini shakllantirish yo'llari | 446 |
| Ibraymova A. Oilada psixologik zuravonlik va uning ijtimoiy psixologik xususiyatlari | 453 |
| Bayniyazova G. Talabalarda ta'lim sifatni oshirish va tarbiya tizimini takomillashtirish | 458 |
| Муминова Г.Т. Значимость развития аналитических и творческих способностей будущих учителей в образовательном процессе | 463 |

ФИЗИКАЛЫҚ ТӘРБИЯ ХЭМ СПОРТ

| | |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Niyazov A.T., Shamuratova M.Sh. Maktabda harakatlari o'yinlar: faollik va tafakkurni uyg'unlashtirish | 470 |
| Yakupov R. Maktabda jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining sifatini oshirish yo'llari | 476 |

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA JAHON ADABIYOTI VOSITASIDA TALABALARNI MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASH TAMOYILLARI

Usmanova R.B.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: jahon adabiyoti, oliy ta'lif, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, ma'naviy tarbiya, estetik tarbiya, axloqiy tarbiya, ta'lif tamoyillari, pedagogik jarayon.

Ключевые слова: мировая литература, высшее образование, национальные ценности, общечеловеческие ценности, духовное воспитание, эстетическое воспитание, нравственное воспитание, принципы воспитания, педагогический процесс.

Key words: world literature, higher education, national values, universal human values, spiritual education, aesthetic education, moral education, principles of education, pedagogical process.

РЕЗЮМЕ:

Mazkur maqolada oliy ta'lif muassasalarida jahon adabiyoti asarlari orqali talabalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash tamoyillari tahlil qilinadi. Jahon adabiyotining ma'naviy-estetik va axloqiy tarbiyaviy imkoniyatlari ochib berilib, o'quv jarayonida uni samarali qo'llashning nazariy asoslari va amaliy jihatlari yoritiladi. Shuningdek, milliy qadriyatlarni rivojlantirish va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish o'rtasidagi uyg'unlik tamoyillari asosida ta'lif jarayonini tashkil etish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье анализируются принципы воспитания студентов в духе национальных и общечеловеческих ценностей через произведения мировой литературы в высших учебных заведениях. Раскрывается духовно-эстетический и нравственный воспитательный потенциал мировой литературы, освещаются теоретические основы и практические аспекты её эффективного использования в образовательном процессе. Также даются рекомендации по организации образовательного процесса на основе принципов гармонии развития национальных ценностей и привития общечеловеческих ценностей.

SUMMARY:

This article analyzes the principles of educating students in the spirit of national and universal values through works of world literature in higher education institutions. It reveals the spiritual, aesthetic and moral educational potential of world literature, highlights the theoretical foundations and practical aspects of its effective use in the educational process. It also provides recommendations on organizing the educational process based on the principles of harmonious development of national values and instilling universal values.

Hozirgi globallashuv sharoitida, axborot texnologiyalarining tez sur'atda taraqqiy etishi, xususan, internet tizimining har bir xonadonga kirib borishi bir qator ijobiy jihatlar bilan birga turli ko'rinishdagi ma'naviy-mafkuraviy tahdidlarni ham keltirib chiqarmoqdaki, yoshlarda ularga qarshi immunitetni shakllantirish dolzarb muammo sanaladi. Shu bois ta'lim tizimida adabiyot tarixini o'rganish barobarida yoshlarning ma'naviy dunyosini boyitish, yuksak umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, kitobxonlik va mutolaa madaniyatini oshirishni talab etiladi. Shundan kelib chiqib, zamonaviy talablar asosida jahon adabiyoti asarlarini o'rganish maqsadga muvofiq. Jahon adabiy ta'limida ijodkorlik, faollik, yaratuvchanlik, tanqidiy va ijodiy fikrlash, mustaqil faoliyat olib borish kabi konseptual masalalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta'limning vazifasi talabalarni kasbiy, huquqiy, milliy, ma'naviy-ma'rifiy, mafkuraviy va madaniy jihatdan tarbiyalashdan iborat. Xalqaro ta'lim andozalariga moslikning ta'minlanishi ta'lim mazmuniga ma'naviy-ma'rifiy jihatlar ham kiritilishini talab qiladi. Chunki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning bundan keyingi bosqichlari jamiyatga global miqyosda fikrlay oladigan, turli xil siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy vaziyatlarda o'z yo'nalishini topa oladigan, taraqqiyatparvar g'oyalar va mafkura bilan qurollangan yetuk shaxslar yetkazib berilishini taqozo etadi. Bunday shaxslarning tayyorlanishida esa, oliy ta'lim jarayoni yetakchi va hal qiluvchi o'rinni egallaydi. Talabalarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirish muhim omili hisoblanadi.

Odamlar hayotga, tabiat va jamiyatga, o'z-o'ziga, kelajak va o'tmishta, biron konkret voqeaga munosabatini belgilashda ma'lum mezonlardan, me'yorlar va baholardan kelib chiqadi. Boshqacha aytganda aytganda, muayyan qadriyatlar bilan taqqoslab, baho beradi va munosabatda bo'ladi. Qadriyatlar xar bir shaxsning kamolotida muhim o'rin egallaydi.


Jamiyatimizda ma'naviy qadriyatlarning negizini tashkil etayotgan milliy qadriyatlar muhim ahamiyatga ega. Ma'naviyat, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ularning yoshlar ma'naviy kamolotiga ta'siri haqidagi fikrlarni Al-Forobi, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Burhoniddin Marg'inoniy, Ahmad Yassaviy, Pahlavon Mahmud, Alisher Navoiy, Bobur asarlaridan ham ko'plab keltirish mumkin.

Ma'rifatparvar olimlar Munavvarqori Abdurashidxon o'g'li, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Sadreddin Ayniy va boshqalar yoshlar ongiga ma'rifat, madaniyat, milliy onglilik, milliy til, milliy urf-odat va umuminsoniy ma'rifiy bilimlarni olib kirishga harakat qilganlar. Qadriyatlar, ularning asosiy shakllari va xususiyatlarini tahlil va tadqiq qilish yurtimiz mustaqilligining hozirgi davrida eng dolzarb masalalardan biriga aylandi.

Davlatimiz taraqqiyotida umuminsoniy qadriyatlarning o'rni va ahamiyatini ilmiy tahlil qilish umummilliylar, ijtimoiy-siyosiy ehtiyojlar tarzida, dolzarb muammo sifatida kun tartibiga chiqmoqda.

Mamlakatimiz olimlari, yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish, ma'naviyat masalalariga e'tibor qaratish, yoshlarni milliy meros ruhida tarbiyalash masalalarining ijtimoiy-falsafiy jihatlarini, E.Yusupov, X.Shayxova, J.Tulenov, Q. Nazarov, O.Tohirov, S.Otamurodov, A. Jalolov asarlarida o'tmish ajdodlarimiz ma'naviy merosiga tayangan holda qadriyatlarning milliy jihatlariga ko'proq e'tibor berilgan. Ular qadriyatlarning milliy va umuminsoniy jihatlarini tadqiq qilgan.

Bo'lajak pedagoglarni milliy ruhda tarbiyalashda jahon adabiyoti asarlarini tahlil qilish va qiyoslash samara beradi. Oliy ta'lim jarayonida talabalarni jahon adabiyoti bilan tanishtirishda muayyan tamoyillarga tayanish maqsadga muvofiq. Ularga quyida to'xtalib o'tamiz.



I-rasm. Jahon adabiyoti vositasida talabalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ruhida tarbiyalash tamoyillari

1. Tizimlilik tamoyili. Badiiy asar va ijtimoiy hayot hodisalarining umumiy aloqadorligini tasavvur qilish hamda o‘zlashtirish, tupli vazifalarni hal etishni ta’minlaydi. Talabalar uchun yaratilgan qulay va erkin sharoit bilimlarni o‘zlashtirish samarali kechishiga xizmat qiladi.

2. Ta’limning milliy yo‘naltirilganligi. Mazkur tamoyil ta’limning milliy tarix, xalq an’analari va urf-odatlari bilan o‘zaro uyg‘unligi, milliy-madaniy meros namunalari, milliy qadriyatlarga tayanilishini, shuningdek, “O‘zbekiston xalqlarining madaniyatini saqlab qolish va boyitish, ta’limni milliy taraqqiyotning o‘ta muhim omili sifatida e’tirof etish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyati”ning hurmat qilinishini bildiradi.

3. Ta’lim va tarbiyaning uzviy bog‘liqligi. Bu tamoyil o‘qitish va ta’lim jarayonlarining shaxsni har tomonlama kamol toptirishga yo‘naltirilganligini, ta’lim davrida unda yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish, talabada milliy ruhni tarbiyalashda uning ongiga yangi bilimlarni singdirish, mavjud bilimlarni boyitish va mustahkamlash zarurligini anglatadi.

4. Integrativlik tamoyili. Ushbu tamoyil dapclapda faoliyat turlari, o‘quv materiallarining o‘zaro bir-biriga uyg‘unlashuviga ta’milanadi, o‘zaro ta’sirini o‘zida aks ettiradi. Integrativlik butun pedagogik jipayonda talabalarning turli xil faoliyati birlashtiriladi. Ular faoliyatni ongli tashkil etishga sabab bo‘ladi hamda talabalarni o‘zini-o‘zi tarbiyalashni tartibga soladi, mavjud me’yorlar doirasida harakatlanishiga sabab bo‘ladi

5. Munosabatlarda shaxs manfaati ustuvorligi tamoyili. O‘qituvchining jamoani boshqarishda shaxsni jamoada shakllanishiga qay darajada e’tibor qaratganligiga bog‘liq. Bu munosabatlar obyektiv ravishda qadriyatli xususiyatga ega bo‘lishi, ya’ni jamoa a’zolari bilan muloqotda o‘zaro hurmat va mas’uliyat bilan yondasha olishi yoki jamoada shaxslararo munosabatlarda salbiy to‘qnashuvlar sodir bo‘lishining oldini olish maqsadida barqaror muhitni barpo etish masalariga alohida e’tibor qaratilishi ta’kidlanadi. Pedagog tomonidan bunday faoliyat to‘g‘ri yo‘naltirilmasa, talabalarda shaxsda shu jumladan, mas’uliyatni namoyon bo‘lishida muammolar paydo bo‘ladi.

6. Tabiiylikka moslashish tamoyili. Mazkur tamoyilda talabalar zarur nazariy bilimlarni o‘zlashtirishi va amaliy jihatdan mustahkamlanishi, shuningdek, talabalarning ichki imkoniyatlari va individual psixologik xususiyatlarini inobatga olinishi bilan izohlanadi.

7. Ko‘pvariantlilik tamoyili. Dars jarayonida o‘quv topshiriqlari talabalarning o‘zlashtirish darajasiga qarab shakllantiriladi. Amaliyot davomida bilimlar tatbiq etilsa, uning muhim ekanligi aniq bo‘ladi va kasbiy sifatlar ichida muhim o‘rin tutadi. O‘qituvchilar o‘quv jipayoniga barqaror muhitni barpo

etish masalalariga alohida e'tibor qaratilishi ta'kidlanadi. Talabalarning ichki holatini sezish qobiliyati, hamdardlik ko'rsatish kabi harakatlarga ahamiyat berishi kerak. Pedagog tomonidan bunday faoliyat to'g'ri yo'naltipilmasa, rivojlanayotgan shaxsda shu jumladan, ijodiylik namoyon bo'lishida muammolar paydo bo'ladi.

Yuqorida sanab o'tilgan tamoyillar talabalarda erkin fikrlash, o'z-o'zini anglash va ijtimoiy xodisalarga shaxsiy munosabatini ifodalashga imkon beradi. Bu esa, ularda milliy g'urur va iftixor shakllanishiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абу Али Ибн Сино. Тиб қонунлари. 1 китоб. – Т.: Мерос, 1993.
2. Комилов Н. Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи. – Т.: Ёзувчи, 1996.
3. Ўрта Осиё ҳалқлари хурфикрлилiği тарихидан. – Т.: Фан, 1990.
4. Мұхаммад ибн Мусо ал-Хоразмий. Таңланған асарлар. – Т.: Фан, 1983.
5. Юсупов Э. Инсон камолининг маънавий асослари.- Т.:Университет, 1998;
6. Э.Юсупов Қадриятлар ва уларнинг жамият хаётидаги ўрни-Т.:Тошкент техника университети, 1995;
7. Шайхова Х. Инсон ва унинг маънавий дунёси. -Т.: Ўзбекистон зиёлилари илмий-маърифий ўюшмаси. 1993;
8. Назаров. Қ. Аксиология. (Қадриятлар фалсафаси.) - Т.:Академия, 2011;
9. Тоҳиров О. Комиллик-етуқлиқ тимсоли. // Мулоқот, 1999, Зсон;
10. Йўлдошев Ф., Ҳайдаров О. Маънавий мерос ва ёшлар тарбияси. // Гулистон, 1999, 5-сон.
11. Таляба ёшларининг миллый ўзликни англаши. // Ижтимоий фикр. 2000, 1-2 сон; Туленов Ж. Истиқтол ва тараққиёт мағкураси: мақсад ва йўналишлари.- Т.:Ўзбекистон, 1993